



**DALVARZINTEPANING ARXEOLGIK XAZINALARI VA  
TARIXIY AHAMIYATI**

*Ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

***Arabova Dilnoza***

*Temiz arxeologiya muzeyi ilmiy xodimi*

***Narkulova Zulayxo***

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida joylashgan qadimiy Dalvarzintepa yodgorligi hamda Dalvarzintepa yodgorligida topilgan topilmalar va fil suyagidan ishlangan qadimiy shaxmat donachalari, ularning arxeologik ahamiyati, tarixi va badiiy xususiyatlari atroflicha tahlil qilinib, Markaziy Osiyoda shaxmat o'yini tarixi bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Topilmalarning morfologik xususiyatlari, sanasi, yuksak hunarmandchilik texnologiyalari hamda madaniy ahamiyati haqida ilmiy manbalar asosida fikr yuritiladi. Shaxmat o'yinining ilk ko'rinishi hisoblangan "Chaturanga", "Shatranj" ning Dalvarzintepa orqali Markaziy Osiyoga kirib kelishi va bu hududda o'yin madaniyatining shakllanishi haqida xulosalar beriladi. Dalvarzintepa shaxmat donachalari Markaziy Osiyoda shaxmatning juda erta tarqalganini shaxmatning rangi, yasalish uslubi va funksiyasini belgilashda o'ta muhim manba ekanini isbotlovchi muhim arxeologik manba sifatida baholandi.*

**Kalit so'zlar:** *Dalvarzintepa, Kushon davlati, Antik davr, Chag'onrud, Chag'oniyon davlati, Taramata, Tarmita, fil suyagi, jez, isirg'a, degrez, yombilar, oltin shidalar, miskarlik, pona, arxeologiya, Buddaning boshi, Bodxisatva, Baqtriya, Movarounnahr, Chaturanga, Shatranj, madaniy meros.*

Markaziy Osiyo, xususan hozirgi O'zbekiston hududi jahon sivilizatsiyasi rivojida beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan ilk shaharsozlik, hunarmandchilik va intellektual madaniyat o'chog'i sifatida mashhur. Bu hududdagi qator arxeologik topilmalar orasida shaxmat madaniyatiga oid artefaktlarning ham uchrashi, mintaqa qadimda nafaqat iqtisodiy va siyosiy, balki intellektual jihatdan ham yuksak



maromiga ega bo'lganini ko'rsatadi. Surxon vohasi arxitektura obidalarining durdona manbalaridan biri bo'lgan, Dalvarzin shahrining shakllanishida muhim o'rin tutgan Kushon davlati tarixi davlatchiligimiz tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan davr hisoblanadi. Bu davrda vohada ikkita yirik markaz mavjud bo'lib, bulardan biri Amudaryo bo'yidagi Taramata -Tarmita (Termiz) bo'lsa, ikkinchisi esa Chag'onrud (Surxondaryo) bo'yidagi Dalvarzin shahri bo'lgan. Dalvarzintepa Sho'rchi shahridan 10 km shimoli-sharqda joylashgan, maydoni 47 gektarni tashkil etib, 2 qismdan iborat qudratli mudofaa devori (qalinligi 10 metrgacha) bilan o'rab olingan shoh saroy qal'asi va shahristonni o'z ichiga olgan. Dalvarzin shahri, shubhasiz, yirik imperiyaning poytaxti bo'lib, atrofda unga tobe bo'lgan viloyatlar va o'lkalar bor. U yerlarda ham madaniy hayot bir vaqtda taraqqiy etib, podshoh vaqti-vaqti bilan dam olgani chiqqan go'zal bog' - rog'lar va maskanlar bo'lgan.



### **Dalvarzintepa yodgorligi.**

Dalvarzintepa yodgorligida shahar devorlari, ariqlar va sug'orish tizimlari, qasrlar, hunarmand ustaxonalari, buddaviy ibodatxona, zargarlik buyumlari xazinasi markazlari tashkil topgan. Shaharning ma'muriy markazi bo'lgan birinchi-bosh Dalvarzinning umumiy hududi 5 gektar maydonni tashkil qilib, unda Arki a'lo-podshoh saroyi va uning devoni joylashgan. 1962 yilda arxeolog olimlar ma'muriy markazdagi 9 metr 60 santimetr qalinlikda pasxa va xom g'ishtdan qurilgan mudofaa devorini aniqlashdi. Arkka shimoli-sharqdan to'g'ri to'rtburchak shakldagi asosiy shahar xarobalari tutashib, uning 10 metr balandlikdagi devorining uzunligi 2,5



kilometrliigi aniqlandi. Antik davrdagi shaharlarda darvozalar uncha ko‘p bo‘lmagan, chunki doimiy tahlikada bo‘lgan joy ham, sotqinlar dushmanga ochib beradigan joy ham shaharning darvozasi hisoblangan. Dalvarzin shahrining ham faqat bir darvozasi bo‘lgan, u podshoh arki yaqinida joylashgan. 1962 yili 15 kunlik qidiruv ishlarida faqat podshoh arki devorining qalinligi, uning poydevoriga qo‘yilgan katta hajmdagi xom g‘ishtlar, pasxa qatorlari hamda ikki qator devor borligi ilmiy tadqiqotlar davrida aniqlandi. Dalvarzintepada 1967 yildan arxeologik tadqiqotlar olib borilib, arxeologlar shahar mudofaa devorini o‘rganib, uning to‘rt joyini kesib tekshirib mudofaa devorini 100 metr uzunlikda qazish natijasida shahar mudofaa devorlari qalin pasha va xom g‘ishtlardan tiklanganligini aniqladi. Bu devor qalinligi 8-10 metr bo‘lib, devorning ba‘zi joylarida mustahkam istehkomlar, burjlar va askarlar yurishi uchun maxsus yo‘laklarni tekshirish jarayonida aniqlandi.

O‘zbekiston San’atshunoslik ilmiy-tadqiqot institutining ekspeditsiyasi Dalvarzintepa manzilida 1962 yildan boshlab ilmiy-tadqiqot ishlari olib bormoqda.

Ekspeditsiya 1967 yilda mukammal arxeologik qazish ishlarini olib borib, katta natijalarga erishdi. 1968 yilda Tojikistonning Dushanbe shahrida “ Kushonlar davrida Markaziy Osiyo ” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro ilmiy anjumanda ilk bora Dalvarzintepadan topilgan haykallar, kulolchilik buyumlari, shahar mudofaa inshootlarini o‘rganish bilan bog‘liq ma’lumotlar ilmiy jamoatchilikka taqdim etildi. Anjumanda Chag‘oniyon davlatining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa ekanligi tadqiqotchilar tomonidan asoslab berilib, miloddan avvalgi II asr oxiri – I asrlarda hozirgi Dalvarzintepa o‘rnida kichik manzil paydo bo‘lib, kushonlar Dalvarzintepa shahar sifatida davlat markaziga aylanganligi qayd etilgan. 1972 yili Kushon davri madaniyatining mashhur yodgorligi Dalvarzinda 200 metr devor qoldiqlari topildi,

uning eni 4,6 m, balandligi 2,5 m keladi. Dalvarzintepa atrofida devor bilan o‘ralgan ark xarobasi bo‘lib, ark devorining uzunligi 130 m ga, balandligi esa 2,5 m ga tengdir. Dalvarzintepaning sharqiy qismida hatto 80 m masofada eni 4 metrlik tosh yo‘l kovlab ochildi, bulardan tashqari, bu yerda bir necha to‘rt burchakli paxsa devorli uylar topildi. Dalvarzintepada topilgan 900 ga yaqin tosh o‘roq, jez o‘roq, yorg‘uchoq, don uchun kovlangan o‘ra hamda kuyib ko‘mirga aylangan arpa,



bug'doy, tariq, suli donlari va boshqa ashyolar qadimgi dalvarzinliklar asosan dehqonchilik bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi.



### **Zodagon xonadoni. (Dalvarzintepa). Mil. avv. I asr mil. III asrlar.**

Arxeologik topilmalar: suyakdan yasalgan buyumlar, jez igna va bigizlarga qarab hukm qilganda, aholining turmushida to'quvchilik va tikuvchilik keng taraqqiy etganligini ko'ramiz. Dalvarzinda degrezlik va miskarlik ancha tariqqiy qilgan, chunki bu yodgorliklardan juda ko'p temir buyumlar; jez, o'roq, pona, pichoq, kamon o'qlarining paykonlari, nayza uchlari, zeb-ziynatlar, jez oynalar, bilaguzuklar, isirg'alar, cho'michlar, munchoqlar hamda turli xil jez buyumlar quyiladigan tosh qoliplar, shuningdek, degrezlik qo'rasining 5 ta qoldiqlari topilganligi bularning yaqqol dalilidir. Arxeologik tadqiqotlar natijasida 1972 yil jahonga mashhur bo'lgan 36 kilogrammi tashkil etgan oltin bezaklar va yombilardan iborat noyob xazina va fil suyagidan ishlangan, dunyoda eng qadimiy bo'lgan shaxmat donalarini o'z ichiga olgan Dalvarzintepa xazinasini topildi. Xazinada 115 ta oltin buyumlar bo'lib, bular yombilar, bilaguzuklar, oltin shodalar va boshqa taqinchoqlardan iborat. Taqinchoqlar juda og'ir, hatto bitta bilaguzuk 872 g sof oltindan iborat bo'lib, nozik did bilan ishlangan. Shuni alohida qayd etish kerakki, xazinadagi taqinchoqlar turli shakldagi bilaguzuk va ziraklar, qizg'ish rangli qimmatbaho toshga o'yib ishlangan, erkak tasviri tushirilgan bo'yin taqinchog'i, tilda ipchalardan to'qilgan va 5 qator tizilgan shodalar bu yerda zargarlik san'ati yuksak darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Chunki zargarlar tomonidan tayyorlangan oltin shoda taqiladigan qismining ikkala tomoniga 10 tadan ortiq feruza va yoqut toshlar nafis va go'zal qilib qadalgan.



**Dalvarzintepa xazinası**

**(Serdolik) Mil.I asr.**

Dalvarzin shahrining chekkaroq joyida milodiy I asrda tiklangan Budda ibodatxonasidan Buddaning boshi, Bodxisatvaning mahorat bilan ishlangan mahobatli haykali, fil suyagidan tayyorlangan shaxmatning ikki donasi topildi. Ulardan biri orqa oyoqlarida o'tirgan va xartumiga tayanib xuddi o'rnidan turishga shaylanayotgan fil tasviridir (2,4 x 2,9 x 1,8 sm.). Ikkinchisi esa to'rtburchak poydevorda turgan buqa (yoki kiyik) tasviridir (1,8 x 2,2 x 1,9. sm.). Ushbu haykalchalar qadimgi shaxmat to'plamiga tegishli bo'lgan.

Ko'pchilik olimlar shaxmatning ilk shakli – "Chaturanga" - milodiy VI asrlarda Qadimgi Hindistonda paydo bo'lgan, deb hisoblaydi. Faqat bu o'yin turida 4 kishi ishtirok etadi. Chaturungada quyidagi figuralar bo'lgan:

- roja (shoh)
- mantrin (farzin)
- ratha (to'ra)
- gaja (fil)
- ashva (ot)
- padati (piyoda/ askar)



**Bo'yin taqinchog'i**

**Shaxmat donalari. (Fil suyagi). Milodiy I-II asr.**

Buddaning boshi loy va gipsdan yasalgan bo‘lib, boshining balandligi 39 sm, eni 25 sm keladi. Bodxisatvaning (o‘sha davrga oid) haykali ham loy va gipsdan yasilib, rang bilan bo‘yalgan. Uning balandligi 2 metr 18 sm, eni 89 sm. U bir paytlar Budda butxonasida turgan haykallar guruhidan biridir. Bu ko‘hna topilmalar boshqa yodgorliklar bilan birgalikda 1988 yili Yaponiyaning Nara shahridagi “ Ipak yo‘li Naraga boradi ” deb nomlangan xalqaro ko‘rgazmada namoyish etilgan edi. 1995 yili esa ular Parijdagi muhtasham “ Grand-Pales ” (Katta saroy)ning nodir galereyasida muvaffaqiyat bilan namoyish etildi.

**Bodxisatva (nusxa) Dalvarzintepa. II-III asrlar.**



Devor qurilishi uchun ishlatilgan to'rtburchak g'ishtlar ham shu davrga to'g'ri

keladi. Dalvarzintepadagi antik davr istehkomining tashlandiq holatga kelib yemirilish jarayoni, aftidan, IV-VII asrlarga to'g'ri keladi. Mamlakat VI-VII asrlarda inqirozdan chiqqach, istehkom qulay, baland manzil sifatida qayta qurilib tiklanadi, shaharning o'zi esa haroba bo'lib qoladi. Dalvarzintepa aholi maskani sifatida arablar istilosi chog'ida uzil-kesil tugadi, chunki arkda ham, shahristonda ham arablar kelganidan keyingi davrning izi yo'q. Dalvarzinni 705 yili Qutayba ibn Muslim bosib oladi va 737 yilda uning hokimi arablarga o'lpon to'laydigan bo'ladi. Arablar istilosidan so'ng shahar batamom vayron qilinib, hayot Dalvarzintepadan 10 km chamasi sharqsa, Budrochtepa o'rniga ko'chgan. 1989 yil Dalvarzintepani o'rganishda yangi bosqich bo'ldi - O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi bilan Yaponiyaning Tokiodagi Soka universiteti va Kashiharadagi Arxeologiya institutining prof. Kyudzo Kato rahbarligidagi ekspeditsiyasi hamkorlikda ish olib borishdi. Markaziy Osiyo buddaviylik tarixini o'rganish, buddaviylik personajlari ikonografiyasi, shaharsozlik jarayonining o'ziga xos jihatlari va qonuniyatlari, davlatchilikning shakllanishi, Buyuk ipak yo'li izlari, Kushonlar davridagi diniy e'tiqodlarning o'zaro ta'siri va ular Baqtriya-Tohariston san'atida aks ettirilishi yapon va o'zbek olimlari oldidagi eng dolzarb ilmiy muammolar qatorida turadi.

Xuloqa qilib aytganda: Dalvarzintepadan topilgan fil suyagidan yasalgan o'yin donachalari shaxmat o'yinining Markaziy Osiyoda juda qadimdan mavjud bo'lganini isbotlovchi muhim arxeologik manbadir.

Topilmalar: shaxmat tarixi Hindiston - Baqtriya Markaziy Osiyo yo'nalishi orqali taraqqiy etganini, Dalvarzintepa o'sha davrda yuksak madaniy markaz bo'lganini, shahar devorlari, ariqlar va sug'orish tizimlari, qasrlar, zargarlik buyumlari, buddaviy ibodatxona, hunarmandchilik san'atini juda rivojlanganini, fil suyagi kabi noyob materiallar xalqaro savdo orqali kelib turganini ko'rsatadi. Shuningdek, bu topilmalar shaxmatning turlari - "Shatranj" , "Chaturanga"



o'yining Markaziy Osiyoda shakllanganini, keyinchalik esa islom dunyosi va Yevropa madaniyatiga ta'sir ko'rsatganini ham isbotlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ly.Dalverzintep [Kollektiv], T. 1978; Pugachenkova G. A. Rtveladze E. V.
2. Dalverzintep-Kushanskiy gorod na yuge O'zbekistana. T. 1978; Rtveladze E.
3. Velikiy shelkoviy put. Ensiklopedicheskiy spravochnik, T. 1999.
4. Pugachenkova G. A. Central Asian Art and Archaeology. – Москва, 1981.
5. Rtveladze E. Ancient Bactria and Kushan Empire. – Moscow, 1995.
6. Harmatta J. History of Civilizations of Central Asia. UNESCO, 1999.
7. Yusupov O. O'zbekiston arxeologiyasi tarixidan lavhalar. – Toshkent, 2010.
8. Litvinskiy B. A. Культура Бактрии и Кушан. – Душанбе, 1981.
9. <https://yuz.uz> + 1.